
ILG'OR TERIMCHILAR RAG'BATLANTIRILDI



Ayni kunlarda yurtimiz dalalarida paxta yig'im-terim mavsumi davom etmoqda. Ming mashaqqat bilan yetishtirilgan hosilni nes-nobud qilmay yig'ib olish maqsadida terimchilar, ko'ngilli hasharchilar astoydil bel bog'lab mehnat qilishmoqda.

Qo'shtepa tumanida ham paxtakorlar paxta hosilini yig'ib olish ishlarini jadal sur'atda olib borishmoqda.

Farg'ona viloyati hokimining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi T.Tojiyeva Qo'shtepa tumani "Yassaviy Loyson" MMTP hududidagi "Jasur Javoxir" fermer xo'jaligida bo'lib, terimchilar bilan uchrashdi. Ularga yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishib, suhbatlashdi. T.Tojiyeva ilg'or terimchilarni rag'batlantirib, ularga esdalik sovg'alari ulashdi.

Qo'shtepa tumani hokimligi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-10-13 10:44:06